

## XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA IQTISODIY O'SISHNING INSTITUTSIONAL SHART-SHAROITLARI

*PhD Musinov Dilshod Sultanovich*  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti  
ORCID: 0009-0002-9905-9442  
[dilshodmusinov1978@gmail.com](mailto:dilshodmusinov1978@gmail.com)

**Annotatsiya.** Respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasida shakllangan tashkiliy-iqtisodiy mechanizm xizmatlar bozorida faoliyatini to'laqonli nazorat qilish va boshqarishni tashkil etish. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sish tamoyillari, omillari va institutsional shart-sharoitlarini belgilovchi ko'rsatkichlarni tasniflash hamda mehnat samaradorligini baholash uslubiyati tadqiq etish.

**Kalit so'zlar:** xizmat ko'rsatish, samaradorlik, tendensiyalar, iqtisodiy ko'rsatkichlar, iqtisodiy o'sish, investitsiya, investitsion loyiylar, innovatsiya, bozor iqtisodiyoti, mehnat samaradorligi, iqtisodiy subyektlar, barcha sohadagi xizmatlar, servis, ekstensiv, intensiv.

### ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ УСЛОВИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В СФЕРЕ УСЛУГ

*PhD Мусинов Дильшод Султанович*  
Самаркандский институт экономики и сервиса

**Аннотация.** Организовать полный контроль и управление деятельностью организационно-экономического механизма на рынке услуг нашей республики. Классификация показателей, определяющих принципы, факторы и институциональные условия экономического роста в сфере услуг, а также исследования по методологии оценки эффективности труда.

**Ключевые слова:** услуги, эффективность, тенденции, экономические показатели, экономический рост, инвестиции, инвестиционные проекты, инновации, рыночная экономика, эффективность труда, хозяйствующие субъекты, услуги во всех сферах, экстенсивные, интенсивные.

### INSTITUTIONAL CONDITIONS FOR ECONOMIC GROWTH IN THE SERVICES SECTOR

*PhD Musinov Dilshod Sultanovich*  
Samarkand Institute of Economics and Service

**Abstract.** To organize full control and management of the activities of the organizational and economic mechanism in the services market of our republic. Classification of indicators that determine the principles, factors and institutional conditions of economic growth in the services sector, as well as research on the methodology of assessing labor efficiency.

**Keywords:** services, efficiency, trends, economic indicators, economic growth, investments, investment projects, innovations, market economy, labor efficiency, economic entities, services in all areas, extensive, intensive.

## Kirish.

Iqtisodiy o'sishni YaIMning real hajmi, milliy daromad o'sishi sur'atlari yoki bu ko'rsatkichlarning aholi jon boshiga hisoblaganda o'sishi sur'atlari bilan o'lchanadigan, iqtisodiyotning ma'lum davridagi rivojlanishi sifatida ifodalash mumkin. Bunda o'sish sur'atini yuqorida qayd qilingan birinchi usuli mamlakat iqtisodiy salohiyati kengayishi sur'atlarini baholashda, ikkinchisi aholi farovonligi dinamikasini tahlil etishda yoki turli mamlakatlar va mintaqalarda turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi. Hozirgi vaqtida iqtisodiy o'sishning yuqorida qayd etilgan ikkinchi usuliga ustunlik beriladi, ya'ni bunda milliy iqtisodiyotda real milliy daromad ko'payishi sur'atlari aholi o'sishi sur'atlaridan yuqori bo'lgan rivojlanishi nazarda tutiladi.

Moddiy boylik jamiyat va inson hayotida muhim o'rinni hisoblanadi. Daromadlar ko'payishiga moddiy va ma'naviy qoniqish hosil qilinadigan nufuzli ishda band bo'lish kabi inson imkoniyatlarini kengaytiradigan asosiy vosita sifatida qaraladi. Bundan tashqari daromad soliqlar va boshqa tushumlar manbai bo'lib, ular aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilinishini kafolatlash, ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish, ya'ni moddiy ne'matlarni qayta taqsimlashni amalga oshirish ushun zarur hisoblanadi.

Jahon amaliyotidan shuni ta'kidlash lozimki faqat YaIM ortishining o'zi ta'lim darajasi rivojlanishi, odamlar salomatligi mustahkamlanishi, inson huquq va erkinliklari ta'minlanishiga olib kelmasligiga bir nechta misollar keltirish mumkin. Hatto daromadlarining o'rtacha ko'rsatkishlari deyarli bir xil bo'lgan mamlakatlarda turmush sifati ko'rsatkichlari bir-biridan jiddiy ravishda farq qilishi mumkin.

Insonni rivojlantirish konsepsiyasida an'anavaiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, shu jumladan YaIM hajmi va aholi jon boshiga o'rtacha daromad mavjud ijtimoiy resurslarni taqsimlashda yoki mamlakatlarni rivojlantirish darajasi bo'yisha tasniflashda universal mezon vazifasini o'ta olmaydi. Tobora ko'proq miqdorda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish turmush darajasini oshirish hamda boshqa umummilliy vazifalarni eng oqilona hal etish vositasi ekanligi to'g'risidagi tasavvurlar muayyan darajada bir yoqlama yondashuvdir. Bunday qarashlar noiqtisodiy hisoblangan ko'pgina boshqa rivojlantirish mezonlariga yetarli darajada baho bermaslikka sabab bo'ladi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari rasmiy jihatdan yuqori bo'lganda ham odamlarning turmush darajasi nisbatan pastroq bo'lishi mumkin. Buning aksi – iqtisodiy o'sishdagi natijalar salmoqli bo'limganda ham turmush darjasining nisbatan yuqoriligi ham kuzatiladi.

Jamiyatda sanoat rivojlanishi bosqichidan avval iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tabiiy va mehnat resurslariga, sanoat rivojlanishi bosqishida moddiy resurslarga ustuvorlik berilgan bo'lsa, sanoat rivojlanishidan keyingi hozirgi bosqichda intellektual va axborot resurslarining roli birinchi o'ringa chiqmoqda. Jahonning yetakchi mamlakatlari taraqqiyoti yangi – bilimlar, innovatsiyalar, global axborot tizimlari, yangi texnologiyalar vechur biznesi iqtisodiyotini shakllantirishga olib keldi.

Hozirgi davrda innovatsion iqtisodiyotning asosini jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvchi kuchi hisoblangan inson kapitali tashkil qiladi. Ya'ni inson tafakkuri ishlab shiqarish tizimining shunchaki muayyan unsuri bo'lib qolmasdan, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi. Dastlab insonni rivojlantirish tushunchasining tarkibiy qismlari u qadar ko'p bo'lmasdan, tarbiya, ta'lim, bilim, salomatlikni qamrab olardi. Shu bilan birga uzoq vaqt davomida insonni rivojlantirishga iqtisodiy o'sish nazariyasi nuqtai nazaridan tarraqiy etishning ijtimoiy, ya'ni chiqimli omili sifatida qaralardi. Tarbiya, ta'limga investitsiyalar noishlab chiqarish harajatlari hisoblanardi. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab asta-sekin inson kapitali va ta'limga nisbatan munosabat tubdan o'zgara boshladi.

## Adabiyotlar sharhi.

Ilmiy adabiyotlarda servis iqtisodiyotida mehnat samaradorligi va unumdarligining mohiyati, mazmuni, ularni hisoblash usullari, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va

aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning samaradorligini baholash, samaradorlikni tashkil etuvchi sifatiy holatlarni o'zgarishining ayrim jihatlari ilmiy-nazariy hamda uslubiy jihatdan tadqiq etilgan.

Pardayev (2014) tahriri ostida yozilgan o'quv qo'llanmada xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish muammolari, xizmat ko'rsatish sohasida mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish samaradorligi, sohada mehnat unumdarligini oshirish omillari va yo'nalishlari tadqiq etilgan.

Akademik Abdurahmonov (2012) Inson taraqqiyoti: nomli darsligida inson rivojlanish konsepsiysi, jamiyatda sanoat rivojlanishi bosqishidan avval iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tabiiy va mehnat resurslariga, sanoat rivojlanishi bosqichida moddiy resurslarga ustuvorlik berilgan bo'lsa, sanoat rivojlanishidan keyingi hozirgi bosqishda intellektual va axborot resurslarining roli birinchi o'ringa chiqmoqda. Jahonning yetakchi mamlakatlari taraqqiyoti yangi – bilimlar, innovatsiyalar, global axborot tizimlari, yangi texnologiyalar venchur biznesi iqtisodiyotini shakllantirishga olib kelishi yoritib berilgan.

Rossiyalik olima Erofeeva (2015) o'z asarida xizmat ko'rsatish korxonalarida personalni boshqarish tizimini ishlab chiqish va joriy etish, sohada personalni boshqarish tizimining xorij tajribasi, personalni boshqarish tizimini tadqiq etish usullari hamda xizmat ko'rsatish korxonalarida personalni boshqarish tizimini modernizatsiyalash jarayonlari tadqiq etilgan.

Yuqorida keltirilgan mualliflarning asarlarida turli omillarning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash asosida iqtisodiy o'sishning umumiyligi jihatlari aniqlangan. Ushbu tadqiqotlarda iqtisodiy o'sishga intensiv va ekstensiv omillar ta'siri baholanmagan.

Shunga ko'ra, tadqiqotlarimizning ilmiy mohiyati shundaki, xizmat ko'rsatish sohalari va tarmoqlarida iqtisodiy o'sish dinamikasining umumiyligi indeksi intensiv va ekstensiv omillar tasnifi asosida tadqiq etilgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish tarmoqlarida iqtisodiy o'sishni ta'minlash va samaradorlikni baholash bo'yicha iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o'rganishga dialektik va tizimli yondashuv, kompleks baholash, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik va dinamik yondashuv hamda guruhlash usullaridan foydalanildi.

Iqtisodiy samaradorlik xo'jalik yurituvchilar faoliyatları natijasini aks ettiradi, ijtimoiy samaradorlik esa iqtisodiy subyektlarning ijtimoiy samaradorligini, uni jamiyat hayotining turli tomonlariga ta'sirini aks ettiradi.

Respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasida shakllangan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm xizmatlar bozorida faoliyatini to'laqonli nazorat qilish va boshqarishni tashkil etish. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sish tamoyillari, omillari va institutsional shart-sharoitlarini belgilovchi ko'rsatkichlarni tasniflash hamda mehnat samaradorligini baholash uslubiyati tadqiq etildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash jamiyatdagi umumiyligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning zaruriy sharti sifatida xizmat ko'rsatish jarayoni va uning tarmoq xususiyatlariga bevosita bog'liqdir.

Fikrimizga ko'ra xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash tamoyillari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qonuniyatları ta'sirida aniq maqsad va vazifalarni amalgalash oshirish jarayonidagi ilmiy asoslangan qoidalarni ko'rsatadi. Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash bir qator tamoyillarga asoslanishi, iqtisodiy rivojlanish mexanizmlari iqtisodiy o'sish samaradorligini oshishi va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sohadagi yalpi mahsulotning aholi jon boshiga real o'sishi imkonini berishi zarurdir (jadval).

1-jadvalda quyidagi tamoyillar xizmat ko'rsatish sohasida resurslardan oqilona foydalanish va iqtisodiy samaradorlikka erishish bilan bog'liq qaysi vazifani hal etishga qaratilgan bo'lsa, ularni shu vazifaga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiqdir.

### 1-jadval

#### Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash tamoyillari

Tamoyillar	Mazmuni
Resursslarni adolatli taqsimlash	Adolatli ravishda resursslarni taqsimlash jamiyatning barsha azolari ushun ne'matlarni tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi va turmush sifati yaxshilanadi. Daromadlar va inson turmushi o'rtasidagi bog'liqlik, soliq-byudjet va ijtimoiy siyosat shoralarini qamrab oladigan davlat strategiyasi yordamida shakllantirilishi lozim.
Kognitivlik (intensiv rivojlanish)	Bu tamoyilning mazmuni iqtisodiy tizimga munosabatlar bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash nafaqat uning ustuvor tarmoqlari va yo'nalishlarini rivojlantirishga, balki bilim orttirish, inson kapitalini rivojlantirish, innovatsiyalarga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. Innovatsion iqtisodiyot doimo rivojlanadi, takomillashadi, transformatsiyalashadiki, buning natijasida iqtisodiyot ham miqdor jihatdan, ham sifat jihatdan barqaror rivojlanish tendensiyasiga ega bo'ladi.
Iqtisodiyot moslashuvshansligi	Mazkur tamoyil iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarga asoslangan holda rivojlanishning "moslashuvshan" usullarini joriy qilish zarurati, makroiqtisodiy holatlarning dinamik o'zgarishiga moslashuvshan munosabat bildirish, makro va mikro darajalarda moslashuvshan munosabatlarni shakllantirish, jamiyatda innovatsion xulq-atvor motivatsiyasini rag'batlantirish, innovatsion biznesni kengaytirish kabilarni ifodalaydi.
O'zaro muvofiqlik va integratsiya	Ushbu tamoyil davlatimiz iqtisodiyotini jadal, barqaror va doimiy ravishda rivojlantirish, xizmat ko'rsatishning sohasining asosiy tarmoqlarini diversifikasiya qilish va eksport salohiyatini o'stirishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish, tarmoqlar, komplekslar va xizmat ko'rsatish korxonalarini modernizatsiyalash, xizmat ko'rsatish jarayonlarini texnik va texnologik yangilash natijasida ularning samaradorligi hamda raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashdan iborat.
Komrlekslilik	Xizmat ko'rsatish sohasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash uning tarmoqlarini rivojlantirishning aniq, chuqur va har tomonlama puxta o'ylangan uzoq muddatli rejalarini ishlab chiqish, shu asosda asosiy tarmoqlarni diversifikasiya qilishga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirishni nazarda tutadi.
Sohada mehnat unumdorligini oshirish	Mazkur tamoyilga ko'ra, jahon bozorida doimiy xaridorgir bo'lgan, qo'shilgan qiymat ulushi yuqori raqobatdosh xizmatlar ko'rsatish, mehnat unumdorligini ko'tarish, xizmat ko'rsatish harajatlari va xizmatlar tannarxini pasaytirish, energiya va resursslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish choralarini ishlab chiqish lozim.

**Manba:** muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ayrim davatlarda iqtisodiy o'sish yuqori, boshqalarda esa past. Bu esa mamlakatlar rivojlanishida iqtisodiy o'sishga erishish ishlab chiqarish va xizmatlar omillaridan samarali yoki samarasiz foydalanilayotganligiga bog'liq. Shuningdek, qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish uning omillari hajmi va darajasi o'zgarishiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Qisqa muddatli iqtisodiy o'sishda mehnatni ishchi kuchi va kapital omillaridan samarali foydalanish davri

o'zgarishi belgilangan bo'lsa, uzoq muddatlida – ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)dagи omillar hajmi va texnologiyalarning o'zgarishi nazarda tutiladi.

Bugungi vaqtida dunyodagi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darjasи o'z mohiyati va mazmuniga ko'ra, oldingi bosqichlardagi rivojlanishdan jiddiy tarzda farq qiladi. Iqtisodiy barqarorlikka erishishning zamonaviy shartini xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi bilan bog'liq iqtisodiy hodisalarning xususiyatlariga bog'liq holda yangicha konseptual yondashuvlarni talab qilmoqda. Bizning fikrimizcha, bu holat xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining o'ziga xos jihatlari bilan izohlanadi:

1. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda axborot texnologiyalari moddiy ne'matlar ishlab chiqaradigan tarmoqlarda samaradorlikni oshishiga olib kelmoqda, ammo uni iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ta'siri masalalari alohida dolzarb hisoblanadi. Bunga bog'liq holda, sanoatga nisbatan xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlikni yuqori ekanligini ko'pchilik xorij iqtisodchilari xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikni industrial tarmoqlarga nisbatan pastligi bilan izohlaydilar.

2. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, barcha xizmat turlari bo'yicha fan texnika taraqqiyoti (FTT) yutuqlarini mehnat jarayoniga joriy etish bir xilda qabul qilish xususiyatiga ega emas, bu esa o'z navbatida samaradorlikka o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bir qator an'anaviy xizmatlar, xususan, umumiy ovqatlanish bilan bog'liq sub'ektiv xususiyatga ega xizmatlar standartlashtirish va texnikalashga unchalik ham mos kelmaydi. Bu kabi xizmatlar FTT yutuqlarini tez qabul qilsa ham, ular ko'proq iste'molchilarining xohish-istagi va xizmat ko'rsatish darajasiga bog'liqidir. Agar ular past darajada bo'lsa, bu hol ishlab chiqarish samaradorligining o'sish sur'atiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning ushun, xizmatning bu turlarida unumdonlik darajasini oshirishga axborot-texnologiyalari unchalik katta ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi.

3. Servis faoliyati unumdonligini o'sish darajasining turlichaligi xizmatlar ko'rsatish jarayonida FTT ta'sirini har-xilligi, iste'molchilarini xizmatlar iste'moliga jalb qilinish darajasiga bog'liqligi bilan asoslanadi. Shunday ekan, xizmat ko'rsatish jarayonini modernizatsiyalash bilan bog'liq unumdonlik omili mezoniga ko'ra, individual xizmatlar ko'rsatishda, progressiv xizmatlarga nisbatan samaradorlik oshmasligi mumkin.

Shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasida (servis iqtisodiyotida) samarali xo'jalik faoliyatini tashkil etish industrial (sanoat) faoliyatga qaraganda kengroq darajada tadqiq etilganki, bunda avvalambor ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshirish jamiyatda aholining turmush darjasи va sifatini oshirish, mehnat jarayonini intellektuallashish darajasini oshirish hamda tejamkor iqtisodiyotni yuzaga keltirishga yo'naltirilganligi bilan iifodalanadi.

1. Servis iqtisodiyoti sohasida faoliyat olib borayotgan xo'jalik sub'ektlari birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, ya'ni iste'molchilarining xususiy (maxsus) talablarini to'liqroq qondirishga e'tibor beradilar. Industrial iqtisodiyotda esa asosiy e'tibor ko'proq mahsulotlarni maksimal darajada ishlab chiqarishga yo'naltiriladi.

2. Servis iqtisodiyotida natijadorlik (foydalilik) tushunchasi tovarlardan foydalanish tavsifi bilan bir xil bo'lib, bunda moddiy ne'matlar va xizmatlar tizimining qanchalik darajada takomillashganligini aniqlaydi. Industrial iqtisodiyotda esa faqat tovar-mahsulotining moddiy tomoni e'tiborga olinadi.

3. Servis iqtisodiyotida "sifat" mezoni asosida ishlab shiqaruvchining iste'molchini maksimal ehtiyojini qondirishga bo'lgan munosabatini doimo nazorat qilish va belgilash qobiliyati nazarda tutiladi. Industrial iqtisodiyotda esa "sifat" mezoni asosida faqat faoliyat yurituvchining "o'z ishini yaxshi bajarish" qibiliyati e'tiborga olinadi.

4. Servis iqtisodiyotida menejment tizimi ham o'zgarib boradi. Uning asosiy xususiyatlari sifatida egiluvchanlik, qarorlar qabul qilishning jadalligi, tashkiliy jihat, erkin harakat qilish va oshkorlik hisoblansa, industrial iqtisodiyotda esa menejment "mexanik" xususiyatga ega, ya'ni tashkiliy tuzilmalarining iyerarxik va ularning ortiq darjada tartibga solinishi bilan aniqlanadi.

5. Servis iqtisodiyotida asosiy ye'tibor servis tizimi shakllanishining samaradorligiga qaratilsa, industrial iqtisodiyotda esa xomashyoni tayyor mahsulotga aylanishiga asosiy e'tibor qaratiladi.

Ushbu keltirilgan fikr va mulohazalardan xulosa qiladigan bo'lsak, xizmat ko'rsatish sohasida (servis iqtisodiyotida) korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish industrial iqtisodiyotdagi samarali faoliyatga nisbatan jiddiy farq qiladi va u asosan mehnat faoliyatining ijtimoiy yo'naltirilganligining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Shunga ko'ra, rivojlangan va iqtisodiyoti yetakchi davlatlarda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy taraqqiyotni hozirgi zamonaviy jihatdan o'rganishga imkoniyat yaratmoqda. Shu jumladan, nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlar, balki sifat ko'rsatkichlari, ijtimoiy ko'rsatkichlar, turmush tarzi indikatorlari unda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu holatda samarali faoliyat yuritish deganda iste'molchilarining talablarini, avavlambor ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilganligi tushuniladi. Industrial iqtisodiyotda esa ko'p hollarda miqdoriy, iqtisodiy hamda ustivor yo'nalishlardagi maqsadlar e'tiborga olinadi.

Innovatsion iqtisodiyotning asosini hozirgi davr jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning hal qiluvshi kuchi hisoblangan inson kapitali tashkil etadi. Ya'ni inson tafakkuri ishlab chiqarish tizimining shunchaki muayyan unsuri bo'lib qolmasdan, balki bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi.

Natijada servis iqtisodiyotining farq qiluvchi xususiyati sifatida axborotlar almashushi hal qiluvchi rol o'ynay boshladi. Shuningdek, hozirgi kunda xizmat ko'rsatish sohasi axborotlarni tarqatuvchi va undan foydalanuvchi tarmoqqa aylanib bormokda. Bugungi kunda 63,0 % xizmatlar intellektual xizmatlar kategoriyasiga kiritiladi. AQShda 1991 yilda kompyuter resurslari biznesining 76,6 %i xizmat ko'rsatish sohasi hissasiga, faqatgina 11,9 %i kompyuterlardan intensiv foydalanuvchi sanoat tarmoqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Xulosa va takliflar.

Shunday qilib, iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning ajralmas elementi sifatida qaraladi. Bu, bir tomondan, rivojlanishning siklik xususiyatini keltirib chiqaradi, ikkinchi tomondan, uning o'zi turg'unlik va tushkunlik davrlarida tayyorlangan o'zgarishlar natijasidir. Iqtisodiy rivojlanish esa, birinchi navbatda, iqtisodiyotning taraqqiyot qobiliyatini nazarda tutadi ishlab chiqarish tarmoqlarining o'zgarishi, institutsional muhitning o'zgarishi, demografik va innovatsion dinamik ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy rivojlanish iqtisodiy o'sish omillarining sifat jihatidan ham o'zgarishini nazarda tutadi.

### Adabiyotlar/Литература/References:

Abdurahmonov Q.X. (2012). Inson taraqqiyoti. Darslik.-T.: Iqtisodiyot, 8-9-b.

Oreds and Sreeshes (2015) MTI For Your Information: Rroductivity in the Services Sestor. Nov 12.

Pardayev M.Q., Mirzayev Q.J. va Rardayev O.M. (2014). Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA"– 384 b.

Ерофеева Алла Петровна (2015). Модернизация системы управления персоналом на предприятиях сферы услуг - Санкт-Петербург, - 18 с.